

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE**

**IQTIDORLI YOSH FUTBOLCHILARNI SARALASHDA MUSOBAQA
FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH VA SHAXSNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Ermatov Sherzod Saidovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh iqtidorli futbolchilarni saralashda musobaqaning o‘rni, musobaqa faoliyatning muvaffaqiyatli bo‘lishiga ko‘plab omillarning ta’siri, psixologik xususiyatlarning eng muhim omillardan ekanligi, shaxsning psixologik xususiyatlarining yosh futbolchilarning musobaqaviy faoliyatini samarali boshqarishga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: saralash, iqtidorli yoshlar, futbol, shaxs, boshqarish, psixologik xususiyatlar, musobaqa faoliyati.

**ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИМИ ОСОБЕННОСТЯМИ
ЛИЧНОСТИ ПРИ ОТБОРЕ ТАЛАНТЛИВЫХ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ**

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли соревнований в отборе молодых талантливых футболистов, влиянии многих факторов на успешность соревновательной деятельности, о том, что психологические особенности являются одним из важнейших факторов, а также о влиянии психологических особенностей человека на эффективное управление соревновательной деятельностью юных футболистов.

Ключевые слова: отбор, талантливая молодежь, футбол, личность, управление, психологические особенности, соревновательная деятельность.

**EFFECTIVE MANAGEMENT OF COMPETITIVE ACTIVITIES AND
PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PERSONALITY IN THE
SELECTION OF TALENTED YOUNG FOOTBALL PLAYERS**

Abstract. This article provides information on the role of competitions in the selection of young talented football players, the influence of many factors on the success of competitive activity, the fact that psychological characteristics are one of the most important factors, as well

as the influence of psychological characteristics of a person on the effective management of competitive activity of young football players.

Keywords: selection, talented youth, football, personality, management, psychological characteristics, competitive activity.

Kirish. Futbol bugungi kunda dunyo bolalari eng sevib o‘ynaydigan va murakkab sport turlaridan biri bo‘lib, unda o‘yinchilar muvaffaqiyatga erishish uchun texnik, taktik va jismoniy ko‘nikmalarga muhtoj. O‘yin jismoniy jihatdan mashaqqatli bo‘lib, o‘yinchilardan tez-tez yuqori intensivlikdagi mashg‘ulotlarda (sprintlik, jismoniy to‘qnashuvlarga tayyor) ishtirot etishni talab qiladi, ular past intensivlikdagi qisqa vaqtlar (yurish va sprint) bilan ajralib turadi [1,2]. Futbolchining muvaffaqiyatini belgilovchi ko‘plab muhim omillar mavjud.

Futbolchilar futbol o‘yinining jismoniy va fiziologik talablariga moslashishi kerak.

Bunda sport psixologiyasining o‘rni va ahamiyati muhimdir. Turli sport turlari uchun psixosportogrammalar yaratish muammosi mavjud. Futbolga kelsak, hozircha bunday psixosportogramma ishlab chiqilmagan [2, 5, 6]. Shu bilan birga, yuqori darajadagi futbolchining model xususiyatlarini ishlab chiqish muhim bo‘lib, bu o‘yinchilarning kelajakdagi natijalarini prognoz qilish, ularni saralash va sport yo‘nalishini belgilash, shuningdek, ularga individual va differensial yondashuvni ilmiy asoslash uchun zarurdir [3, 4]. Ta’kidlash joizki, futbol ko‘plab boshqa sport turlariga nisbatan tashkil etilgan jamoalarda ishtirot etish huquqi uchun yuqori raqobatbardoshlik bilan ajralib turadi, bu esa turli tayyorgarlik bosqichlarida o‘yinchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1, 3].

Shunday qilib, ushbu muammo bo‘yicha ilmiy ishlanmalar deyarli mavjud emas, chunki sport mahoratini oshirish bosqichida o‘yinchilarni jamoalarga saralash mezonlarini aks ettiruvchi nazariya hali ishlab chiqilmagan. Amaliyotda esa bunday saralash jarayonida psixologik mezonlar hisobga olinmaydi.

Tadqiqotning maqsadi – shaxsning psixologik xususiyatlarining yosh futbolchilarning musobaqaviy faoliyatini samarali boshqarishga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish. Futbolchilarning sportda muhim bo‘lgan sifatlarini aniqlash, ularning jamoa zaxirasiga saralanishida psixologik mezonlarni belgilash musobaqaviy faoliyatni samarali boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida futbolchilarning psixologik xususiyatlari (normativ qiymatlar bilan solishtirilganda) aniqlandi:

- motivatsion xususiyatlar: faoliyatga yo‘naltirilganlikning yuqori darajasi, yutuqlarga erishish motivatsiyasi, sog‘liq, hokimiyat va ta’sir, moddiy muvaffaqiyat hamda hayotdan yorqin taassurotlar olishga yo‘naltirilganlik;

- percepтив xususiyatlar: harakat sezgirligi, vaqt va makonni idrok qilishning aniqligi yuqori darajada ifodalangan;

- kognitiv xususiyatlar: so‘zlashuv va ixtiyorsiz xotira, operativ tafakkur, hamda “keskinlashtirilgan” kognitiv uslubning yuqori ko‘rsatkichlari;

- neyrodinamik xususiyatlar: futbolchilar biroz ko‘proq ekstravert bo‘lib, moslashuvchan va hissiy jihatdan ta’sirchan; nerv tizimining kuchi va harakatchanligi, faoliyat va reaktsiya tezligi yuqori darajada namoyon bo‘lgan;
- emotsiyalik xususiyatlar: xavotir darajasi pastroq, ishonch darajasi esa yuqoriroq;
- regulyativ xususiyatlar: diqqatni taqsimlash, maqsadlilik, qat’iyatlilik yuqori darajada; o‘zini tuta bilish va jasurlik ko‘rsatkichlari biroz yuqoriroq;
- xarakterologik xususiyatlar: do‘stona munosabat va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishning biroz yuqori darajada ifodalanganligi.

Natijaviylik tuzilmasida eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan texnik harakatlar (kamayish tartibida): o‘rtacha uzatma ($28,2\pm3,0$ ball), to‘pni olib qo‘yish ($21\pm3,8$), uzoq uzatma ($20,3\pm3,3$), to‘pni oldinga uzatish ($19,4\pm2,5$), hamda to‘pni ushlab qolish ($19,2\pm2,0$). Bu natijalar, ehtimol, ushbu texnik usullarning universalligi va futbolchining o‘yin ampluasidan qat’i nazar, eng ko‘p qo‘llanilishiga bog‘liq. Eng past natijaviylik esa quyidagi texnik harakatlarda kuzatilgan: qisqa uzatmalar ($17,1\pm1,8$ ball), to‘pni oldinga olib yurish ($16,8\pm2,6$), orqaga uzatmalar ($16,1\pm2,2$) va to‘pni orqaga olib yurish ($15,6\pm2,5$).

Barcha o‘yin harakatlari ko‘rsatkichlarida past variativlik darajasi aniqlangan. Eng yuqori variativlik to‘pni olib qo‘yish natijaviyligida kuzatilgan – 18,1%. Umumiy natijaviylik integratsiyalangan ko‘rsatkichlari orasida esa sport faoliyati samaradorligi eng yuqori variativlikka ega bo‘lib, 25,7%ni tashkil etgan. Natijaviylicha eng yuqori bo‘lgan o‘yin harakati – o‘rtacha uzatma – eng kam variativlikka ega bo‘lib, 11,0%ni tashkil qilgan.

Zamonaviy futbolning muhim tendensiylaridan biri futbolchilarning universallashuvdir. Bu ulardan nafaqat o‘z o‘yin amplualariga xos texnik usullarni, balki qo‘sishma harakatlarni ham o‘zlashtirishni talab qiladi. Natijada, futbolchilarning turli texnik usullardagi natijaviylicha yanada muvozanatli bo‘lishiga olib keladi.

Futbolchilarning musobaqaviy faoliyat xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ko‘rsatadi. 1-jadval.

Jami 210 ta mumkin bo‘lgan bog‘liqlikdan 33 tasi ishonchli tarzda aniqlangan ($r=0,95$), bu esa tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlarning integratsiyalashganligini va futbolchilarning sport faoliyatining turli jihatlarini aks ettiruvchi yagona tizim hosil qilishini ko‘rsatadi.

Natijaviylik faoliyat faolligi bilan ($r\leq0,05$) va sport faoliyatining samaradorligi bilan ($r\leq0,001$) bog‘liq bo‘lsada, bu ikki ko‘rsatkich o‘zaro bog‘lanmagan.

Shu sababli, psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqliklarni aniqlashda eng maqbul yondashuv – ularni individual natijaviylik ko‘rsatkichi bilan korrelyatsiyada tahlil qilishdir.

Integratsiyalangan natijaviylik ko‘rsatkichi bilan eng kuchli bog‘liqlikka ega bo‘lgan texnik harakatlar (kamayish tartibida): o‘rtacha uzatma, to‘pni ushlab qolish, darvozaga zarba berish, to‘pni oldinga uzatish, qisqa uzatma, dribling, to‘pni maydon bo‘ylab yon tomonga olib yurish va to‘pni olib qo‘yish.

1-jadval

Futbolchilarning natijaviylik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

№	Natijaviylik	Faoliyatning tarkibiy qismlari									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	Faollik	-									
2.	Samaradorlik		-								
3.	Natijaviylik	45	60	-							
4.	darvozaga zarbalar		44	56	-						
5.	oldinga uzatma		47	56		-					
6.	to‘pni ushlab turish			58	50		-				
7.	aylanib o‘tish			50			44	-			
8.	to‘pgal egalik qilish		42	52		40			-		
9.	to‘pni oldinga tashlash									-	
10.	to‘pni o‘rtadan uzatish	52	44	56	55			44		42	-
11.	yo‘nalish bo‘ylab uzatish			41							-
12.	yo‘nalish bo‘ylab kiritish			50		38					48
13.	qisqa uzatma			52	58			44			40
14.	orqaga uzatma		50	44	37		51				
15.	to‘pni orqa tomonga kiritish					-40				44	

Izoh: Nollar va vergullar olib tashlangan.

Ikki o‘zaro bog‘liq samaradorlik ko‘rsatkichlari bloklari aniqlanib, ular shartli ravishda “hujum bloki” va “himoya bloki” deb nomlandi.

Shaxsning motivatsion xususiyatlari orasida faoliyatning o‘ziga yo‘naltirilganlik – natijaviylik va samaradorlik – uning xususiyatlariga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘yinlardagi natijaviylik asosan faoliyatga yo‘naltirilganlik va yutuq motivatsiyasiga bog‘liq.

Bunday perceptiv sifatlar, masalan, vaqtini aniq idrok etish, natijaviylik bilan statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlikka ega, natijaviylik esa o‘z navbatida samaradorlik bilan ham bog‘liq.

Futbolchilarning kognitiv xususiyatlari ularning o‘yin va musobaqa faoliyati xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiq etilgan xususiyatlar orasida faqat obrazli va og‘zaki xotira faoliyat ko‘rsatkichlari bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega emas. Faoliyatning uchta asosiy xususiyati operativ tafakkur va “ekvivalentlik diapazoni kengligi” kognitiv uslubi bilan bog‘liq. Natijaviylik va samaradorlik esa ixtiyorsiz xotira, kreativlik va “kategoriyalash kengligi” kognitiv uslubidan ta’sirlanadi. O‘yin faolligi ko‘rsatkichi esa kognitiv xususiyatlarga eng kam darajada bog‘liq.

Shaxsning kognitiv sifatlari natijaviylikka eng katta ta’sir ko‘rsatadi (10 ta mumkin bo‘lgan bog‘liqlikdan 7 tasi), biroz kamroq – samaradorlikka (6 ta bog‘liqlik) va eng kam – faollikka (3 ta bog‘liqlik). Umuman olganda, natijaviylikka eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillar quyidagilardir: kreativlik, tafakkur tezligi hamda kognitiv uslublar – “ekvivalentlik torligi” va “keskinlashtirish”.

7 ta neyrodinamik xususiyatdan 5 tasi faoliyat xususiyatlari bilan bog‘liq. Biroq, bu psixologik xususiyatlar o‘yin faolligi bilan bog‘liq emas. O‘yin harakatlarining samaradorligi quyidagi omillar bilan bog‘liq: asab tizimi kuchi, plastiklik va faollik. Natijaviylik esa asab tizimi kuchi va harakatchanligi, plastiklik, reaksiya tezligi hamda faollik bilan bog‘liq, ya’ni faqat hissiyotchanlik va ekstroversiyadan tashqari barcha ko‘rsatkichlar ta’sir qiladi.

Hissiy qo‘zg‘aluvchanlik va ekstroversiya faoliyat xususiyatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas. Biroq, hissiyotchanlik bo‘yicha bog‘liqlikning noxatolik shakli (“gumbazsimon” bog‘liqlik) aniqlangan. Eng yuqori natijaviylikni (25 ball va undan yuqori) ko‘rsatgan sportchilar hissiy qo‘zg‘aluvchanlik darajasi o‘rtachadan biroz yuqori bo‘lganlar (9 dan 12,5 gacha, o‘rtacha qiymat = 10).

Emotsional qo‘zg‘aluvchanlikning 8-9 va 12,5-13 ball oralig‘ida bo‘lishi o‘rtacha samaradorlik ko‘rsatkichlariga (23,75) mos keladi. Emotsional qo‘zg‘aluvchanlik 8 balldan past yoki 13 balldan yuqori bo‘lsa, samaradorlik keskin kamayadi. Bog‘liqlikning ishonchlilikini aniqlash uchun grafikning ikkala qismiga mos ravishda ikkita chiziqli rank korrelyatsiya koeffitsienti hisoblab chiqildi (aslida, korrelyatsion munosabatlar aniqlandi). Emotsionallik va futbolchilarning samaradorligi $p \leq 0,05$ darajasida bog‘liq bo‘lib, ya’ni 95% ishonchlilikka erishilgan.

Uchta o‘rganilgan emotsional xususiyatning barchasi faoliyat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq. Biroq, natijadorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan chiziqli bog‘liqlikka faqat ishonch ega. Tashvish va emotsional barqarorlik esa natijadorlik bilan nolinear («gumbazsimon») bog‘liqlikka ega.

Emotsional barqarorlik va natijadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik jihatdan ishonchli: $p \leq 0,05$. Emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari 7 balldan past yoki 11 balldan yuqori bo‘lganda, natijadorlik pasayadi.

Tashvish natijadorlik bilan xuddi shunday tarzda bog‘liq: $p \leq 0,05/0,05$. Eng yuqori natijadorlik tashvishning 13 dan 22 ballgacha bo‘lgan diapazonida kuzatiladi, bu esa me’yoriy ko‘rsatkichlardan ancha past hisoblanadi.

Sportchilarning shaxsiyati regulyator xususiyatlari faollik bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega emas; natijadorlik va samaradorlikka esa o‘rtacha ta’sir ko‘rsatadi (7 ta mumkin bo‘lgan bog‘liqlikdan 3 tasi ishonchli).

Natijadorlikka ta’sir ko‘rsatadigan omillar (kamayish tartibida): maqsadga intilish, e’tiborni taqsimlash, qat’iyatlilik.

Samaradorlikka esa quyidagilar ta’sir qiladi: maqsadga intilish, e’tiborni jamlash, qat’iyatlilik. Regulyator xususiyatlar ichida natijadorlik komponentlariga eng katta ta’sirni maqsadga intilish ko‘rsatadi.

Futbolchilarning o‘yin va musobaqalardagi natijadorligiga statistik jihatdan ishonchli darajada quyidagi shaxsiy xarakter xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi: tashkilotchilik, jamoavyilik, do‘stona munosabat ($p\leq 0,01$), shuningdek, mehnatsevarlik ($p\leq 0,05$). Samaradorlik faqat tashkilotchilik bilan bog‘liq ($p\leq 0,05$). Faollik esa shaxsiy xarakter xususiyatlari bilan ishonchli bog‘liqlikka ega emas.

Xulosa. Tadqiq qilingan shaxsiy xususiyatlar eng katta ta’sirni natijadorlikka ko‘rsatdi: 28 ta chiziqli va 3 ta nochiziqli bog‘liqlik aniqlandi. Psixologik xususiyatlarning barcha bloklari (sensorlardan tashqari) natijadorlik bilan ko‘plab bog‘liqliklarga ega. Tadqiq qilingan barcha xususiyatlar sport faoliyatining samaradorligi bilan bog‘liq, biroq bog‘liqliklar soni kamroq – 19 ta. Faollikka shaxsiy sifatlarning ta’siri eng kam – statistik jihatdan ishonchli bog‘liqliklar faqat motivatsion va kognitiv xususiyatlar bilan aniqlangan. Neyrodinamik, sensor, perceptiv, emotsiyal, regulyator va xarakterologik xususiyatlar bilan bog‘liqlik kuzatilmadi. Shuningdek, bu tadqiqotda o‘rganilgan barcha psixologik xususiyatlar futbolchilarning o‘yin faoliyati muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qilavermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Masharipov, Y. Sport psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Y.Masharipov, N.Jo‘rayev; mas’ul muharrir Sh.A.Aminjonov. Toshkent, 2010.
2. Губа В. Методология подготовки юных футболистов: учебно- методическое пособие / В. Губа, А. Стула. – М.: Спорт, 2015.
3. Губа В.П. Теория и методика футбола: учебник для вузов / В.П. Губа, А.В. Лексаков – М.: Советский спорт, 2013.
4. Губа В.П. Теория и практика спортивного отбора и ранней ориентации в виды спорта: монография / В.П. Губа. – М.: Советский спорт, 2008.
5. Нифонтов М.Ю. Критерии психологического отбора футболистов на этапе спортивного совершенствования: дис. ... канд. псих. наук: 13.00.04 / М.Ю. Нифонтов.- СПб., 2010.
6. Сучилин, А. А. Теоретико-методологические основы подготовки резерва для профессионального футбола: дис. ... д-ра пед. наук в виде научного доклада: 13.00.04 / А.А. Сучилин. – Волгоград, 1997.